



YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYA – ISLOHOTLAR POYDEVOR

Dalaboyeva Sohiba Anorboy qizi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti
1 bosqich kursanti

Narkulova Indira

Ilmiy rahbar:

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi
Universiteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7989017>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil
Nashr qilindi: 31-May 2023 yil

KEY WORDS

*Konstitutsiyaviy islohotlar ,
konstitutsiyaviy-huquqiy ,
renessans , demokratik islohot ,
huquq , gender siyosati ,
innovatsion iqtisodiyot , shaxs
konstitutsiyasi , jamiyat
konstitutsiyasi , davlat
konstitutsiyasi , samarali
boshqaruv, siyosiy tizim ,
maxsus ekologik qoidalar,
global iqlim , jamoatchilik
nazorati.*

ABSTRACT

Ushbu maqola orqali bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar hamda undagi ekologik sohadagi yangilanayotgan tizimini joriy qilishning ahamiyati yoritildi.

Mamlakatimiz hayotida konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarning barqaror rivojlanishi va mustahkamlanishi, yangi O'zbekistonni bunyod etish va Uchinchi Renessans asoslarini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli va shiddatli demokratik islohotlar uchun muhim hodisalarga boy bo'ldi.

Avvalo, O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning bosh g'oyaviy ilhomlantiruvchisi, shubhasiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, asosiy tashabbuskori esa mamlakatimiz aholisining keng qatlamidir.

Hayotiy talabdan kelib chiqqan va mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning mantiqiy davomi bo'lgan muhim taklif ilgari surildi. **Bu – konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirish.**

Bunda xususiy mulk muhofazasiga doir konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash tashabbuslari, jumladan, yer va yerosti boyliklariga bo'lgan huquq, inson qadr-qimmat, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, mamlakatda millatlar va elatlararo totuvlikni kuchaytirish, milliy demokratik institut — mahallaning o'рни va maqomini oshirish, kelajak avlodlarga an'anaviy insoniy qadriyatlarni asrab-avaylagan

holda yetkazish, oila institutining ahamiyati, davlat yoshlar va gender siyosatini, innovatsion iqtisodiyot va “bilimlar iqtisodiyoti”ni rivojlantirish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga investitsiyalar hajmini kengaytirish kabi tashabbuslar ilgari surildi.

Ma'lumot o'rnida bugungi kunda **dunyoda 500 dan ortiq amaldagi konstitutsiya** bo'lib, ulardan **200** ga yaqini mustaqil davlatlar, **300** dan ortig'i **federatsiyalar sub'ektlariga tegishli**. Shu bilan birga, **Shumer shohi Ur-Nammuning Qonunlar to'plami dunyoning eng qadimgi yozma konstitutsiyasi, deb hisoblanadi**. U muhrlangan sopol peshlavhachalarning yoshi 4 ming yildan oshgan.

Tuzatish, o'zgartirish kiritish imkoniyati barcha konstitutsiyalarning fundamental xususiyatidir. Jamiyat tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida birdek xizmat qiladigan konstitutsiyaviy matn bittada va abadiy yaratib qo'yishning iloji yo'q. Shu bilan birga, Konstitutsiya davlatning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunda konstitutsiyaviy tamoyillar quyidagilarni ko'zda tutadi:

birinchidan, insonning asosiy huquq va erkinliklarini kengaytirish (**shaxs konstitutsiyasi**);

ikkinchidan, “jamoat huquqlari”, “umumjamiyat huquqlar”ning himoyasini mustahkamlash, ya'ni fuqarolik jamiyati institutlarini muvofiqlashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish (**jamiyat konstitutsiyasi**);

uchinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimini tashkillashtirish, bevosita demokratiya shakllari bilan uyg'unlashgan vakillik demokratiyasini (saylov, referendum, umumxalq muhokama) takomillashtirish, hokimiyat vakolatlarini bo'lish, jumladan, qonunchilik va ijroiya hokimiyati o'rtasidagi o'zaro nazorat va muvozanatni saqlash hamda sud organlari mustaqilligi tamoyilini qo'llash, mansabdor shaxslarning mas'uliyati va hisobdorligini yanada oshirish (**davlat konstitutsiyasi**).

Xususan, u hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro nazorat va muvozanatni saqlash tizimini mustahkamlashga, hisobdorlik, shaffoflik, ishtirok va kelajakni ko'ra bilishni oshirishga ko'maklashuvchi konstitutsiyaviy “qoidalar”ni o'zgartirish yo'li bilan “**samarali boshqaruvning**” hayotiy ahamiyatga ega instrumenti bo'lishi mumkin. Boshqaruvning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgarishlar siyosiy tizim barqarorligiga imkon beradi.

Avvalo, bu “**Inson qadri uchun**” ustuvor tamoyilini hayotga tatbiq etishga tegishlidir. Bunda inson qadri — mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayotni, fundamental huquq va erkinliklari, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog'lom ekologik muhit ta'minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilangan:

birinchidan, avval amal qilgan “davlat – jamiyat – inson” paradigmasini yangi “**inson – jamiyat – davlat**” paradigmasiga o'zgartirib, konstitutsiyaviy qonunchilik va konstitutsiyaviy amaliyotda mustahkamlash;

ikkinchidan, iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini ta'minlash. Bu xalqchil davlatni bunyod etishning eng muhim shartidir;

uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va maqomini, “**Jamiyat — islohotlar tashabbuskori**” tamoyilini konstitutsiyaviy mustahkamlash;

to'rtinchidan, oila institutini rivojlantirish, bo'lajak avlodlarga an'anaviy insoniy

qadriyatlarini asrab-avaylagan holda yetkazish, mamlakatda millatlararo totuvlikni mustahkamlashning konstitutsiyaviy asoslarini belgilash;

beshinchidan, Konstitutsiyada davlat yoshlar siyosatini, yangi O'zbekiston bunyodkorlari – yoshlarning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini, ularning huquqi, manfaatlari va majburiyatlarini aks ettirish;

oltinchidan, hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va odil fuqarolik jamiyatini qurish sari ildam borayotganini hisobga olgan holda **“Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat”** tamoyilini konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlash;

yettinchidan, inson huquqlarini himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish, bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bor shaxslar va keksa avlod vakillari huquqlarining ishonchli muhofazasini ta'minlash;

sakkizinchidan, Konstitutsiyaga maxsus ekologik qoidalar, global iqlim o'zgarishlariga tegishli huquqiy me'yorlarni kiritish;

to'qqizinchidan, bolalar bog'chalari, maktablar, Uchinchi Renessans asoslarining o'zaro bog'liq jihatlari bo'lgan oliy ta'lim va fan sohalarini rivojlantirish masalalarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash.

Nafaqat mintaqaviy, balki jahon ko'lamiga ega ekologik fojea — Orol dengizi qurishi bilan bog'liq vaziyatda amaldagi Konstitutsiyada o'z aksini topmagan, insonning ekologik huquqlari, yurtimiz aholisining yashab turgan va bo'lajak avlodlarining qulay va toza atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini mamlakat Bosh qonunida aks ettirishning dolzarbligi va hayotiy ahamiyati ta'kidlandi.

Bugungi kundagi asosiy dolzarb masalalardan biri sifatida ana shu ekologik muammolarni ham kiritishimiz mumkin, albatta.

Shuni aytishimiz mumkinki bu kabi ekologik masalalar yangilanayotgan konstitutsiyamizda o'z aksini topgan bo'lib, unga atroflicha yondashilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Avvalgi 1991-yil 8-dekabrda qabul qilingan konstitutsiyamizda ekologiya bilan bog'liq modda sifatida 50-moddada keltirilganki: "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"-deyilgan. 2023-yil 30- apreldagi yangilanayotgan konstitutsiyamizning 49-moddasida esa atrof muhitga, ekologik huquqga, ekologik tizimga quyidagicha yondashilgan, ya'ni: "har kim qulay atrof muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof muhitni yaxshilash, tiklash va muhokama qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

Atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ekologik jihatdan muhim bo'lgan choralarni amalga oshirish, ularga hurmat munosabatida bo'lish shu jamiyatda yashayotga har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosining burchidir. Bu masalaga jiddiy e'tibor berilayotganini yangilanayotgan konstitutsiyamizning IX bob "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" deya nom berilganidan ham ko'rishimiz mumkin.

References Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining yangilanayotgan tahrirdagi konstitutsiyasi 30.04.2023
2. Наркулов А. К. У. Роль правоохранительных органов и общественных организаций в сфере обеспечения общественного порядка (на примере США) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1615-1620.
3. Derek Lutterbeck, «The Paradox of Gendarmeries: Between Expansion, Demilitarization and Dissolution», The Geneva Centre for the Democratic Control of Armed Forces, 2013.
4. Наркулов А. К. У. НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЛАСТИ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КИБЕРТЕРРОРИЗМУ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 217-224.
5. АМАНБАЕВ Ж. А., НАРКУЛОВА И. Р. К. Технология организации самостоятельной работы в высших военных образовательных заведениях Республики Узбекистан //МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый". – 2022. – №. 23. – С. 136-139.
6. Абдухафизов, Сардор Неъматович, Наркулова, Индира Рустам Кизи СПЕЦИФИКА ОБУЧЕНИЯ ГЛАГОЛАМ ВОСПРИЯТИЯ В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ // ORIENSS. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-obucheniya-glagolam-vospriyatiya-v-vyshih-voennyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniyah> (дата обращения: 22.05.2023).
7. Наркулов А. МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ СОТРУДНИКОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ К ПРИМЕНЕНИЮ СИЛОВЫХ СПОСОБОВ ЗАДЕРЖАНИЯ ПРАВОНАРУШИТЕЛЕЙ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 117-122.
8. Наркулов А. К. Алгоритмизация как эффективный метод оптимизации патрулирования //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 1165-1168.
9. Наркулов А. К. Патрулирование-основа обеспечения общественного порядка //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 1334-1339.
10. Abdurashidovich M. K., Kizi Y. I. R. Developing self-study competence of pedagogies in English languages by computer technologies //Наука и образование сегодня. – 2019. – №. 11 (46). – С. 45-48.
11. кизи Наркулова И. Р. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ-БИЛНГВОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 185-193.
12. НАРКУЛОВА И. THE USE OF COMPUTER LINGUODIDACTICS IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //Social sciences.
13. Narkulova I. R. PROJECT TECHNOLOGY AS A MEANS OF DEVELOPING THE INDIVIDUALITY OF CADETS //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2023. – Т. 3. – №. 1.
14. Хурсандов А. С., Наркулова И. Р. К. Способы выражения правой валентности глаголов восприятия в современном русском языке //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 4. – С. 1337-1341.
15. Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O'zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 895-899.

16. Закирова А. О., Наркулова И. Р. Қ. Роль русского языка в работе сотрудников органов внутренних дел //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 737-740.
17. Ашуров Р. Р. ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ ВОЕННОГО ЮРИСТА Ёриев Озодбек Ойбек ўғли //ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ. – С. 34.

